

**Umumiy soni 6 kishidan boshlab arizachilar uchun
guruh sifatida qabulga yozilish haqida ma'lumotlar**

Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasining qabulga yozilish tizimiga xush kelibsiz! Umumiy soni 6 kishidan boshlab arizachilar qabulga guruh sifatida yozilishlari lozim. Shu orqali arizalarni ko'rib chiqish oson va tez amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Guruh sifatida qabulga yozilayotgan arizachilarning umumiy soni 15 kishidan oshmasligi kerak. Arizachilar soni ko'proq bo'lgan guruhlar, sharoitga qarab, boshqa kunlarda bo'ladigan turli qabul vaqtlariga yozilishlari lozim.

Shuning uchun, aynan guruh bo'lib safarga chiqayotgan shaxslar o'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun **hujjatlarni ko'rib chiqish bo'yicha 4 kundan 7 kungacha kalendar kunini tashkil etadigan muddatni inobatga olib, viza arizalarini o'z vaqtda topshirishlari lozim.**

Odatda guruh safarlari uchun ham **xuddi bir shaxs** safaridagi kabi **safar maqsadiga oid kerakli hujjatlar** (ya'ni, Shengen viza, oliygohda o'qish va hokazo) viza olish uchun taqdim etilishiga e'tiboringizni qaratishingizni so'raymiz.

Viza haqida [rus tilidagi](#) ma'lumotlar quyidagi sahifada joylashgan, [o'zbek tilida](#) esa quyida.

Qabulga yozilishdan avval ushbu eslatmalar bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz. Barcha kerakli hujjatlar to'laligicha ilova qilinmagan arizalar, afsuski, qabul qilinmaydi.

Guruh sifatida qabulga ro'yxatdan o'tish uchun quyidagilarni bajarish lozim:

1) Iltimos, info@taschkent.diplo.de elektron pochta manziliga quyidagi ma'lumotlarni jo'nating:

- guruhning safardan ko'zlagan maqsadi (masalan, turizm, seminar v.b.),
- Germaniyadan taklif qiluvchi shaxs,
- guruhga vakillik qiluvchi O'zbekistondagi shaxs/ koordinatorning ism-sharifi, elektron pochta manzili va telefon raqami.

2) **Guruh tarkibidagi arizachilar ro'yxatida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lishi shart**

- safarga chiqayotgan barcha shaxslarning familiyasi va ismi,
- safarga chiqayotgan barcha shaxslarning pasport raqami va seriyasi **KATTA HARFLARDA** va sonlar orasida bo'sh joy qoldirmasdan kiritilishi shart, masalan, **AB1234567**
- pasportlarning berilgan vaqti

Guruh sifatida qabulga yozilish uchun namuna keyingi sahifada keltirilgan

**Umumiy soni 6 kishidan boshlab arizachilar uchun
guruh sifatida qabulga yozilish haqida ariza
(bir qabulga arizachilar soni 15 kishidan oshmasligi lozim)**

Safardan ko'zlangan maqsad:			
Safar muddatlari			
Germaniyadagi taklif qiluvchi shaxs			
Guruhga vakillik qiluvchi O'zbekistondagi shaxs/ koordinator			
a) telefon raqami			
b) elektron pochta manzili			
Ismi	Familiyasi	Pasport raqami	Pasportning amal qilish muddati
1)			
2)			
3)			

Iltimos, ushbu arizani xatning mavzusiga „Guruh sifatida qabulga yozilish“ deb kiritib, quyidagi elektron pochta manziliga yuboring:

info@taschkent.diplo.de

Guruhga vakil sifatida ko'rsatilgan shaxsga **qabul sanasi qayd etilgan tasdiqlovchi xat elektron pochta (E-Mail) orqali** yuboriladi. **Ushbu xatni hamda guruh a'zolari ro'yxatini bosmadan chiqarib, viza bo'limiga hujjat topshirishda birga olib kelish shart.**

Qabulga **arizada qayd etilmagan shaxslar bilan aslo kelmasligingizni so'raymiz.** Qabulga faqat ro'yxatda ko'rsatilgan shaxslargina kiritiladi.

Agar guruhning bir yoki bir nechta a'zolari qabulga **kela olmasa**, bu haqida bizga o'z vaqtida xabar berishingizni so'raymiz. Bu bizga qabul vaqtlaridan unumli foydalanish imkonini beradi. **Elchixona guruh uchun belgilangan qabulga oldindan xabar bermasdan kelmagan shaxslarning hujjalarini uzoq muddat davomida qabul qilmaslik huquqiga ega.**